

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 4 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидра Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rahimov Oйбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ .....	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI .....	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TANLILI .....	181-184
<b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330



<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI .....	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ .....	335-342
---	---------

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ .....	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ .....	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ .....	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI .....	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA .....	383-387
---	---------

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА .....	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH .....	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI .....	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH .....	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI .....	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI .....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYIY VAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*

**IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING**

**INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532**

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*

**ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА**

**АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539**

**Djurayev Ikrom Nematovich**  
GulDPI, Ijtimoiy fanlar va  
san'atshunoslik kafedrasi dotsenti, PhD

### **YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI**

**Annotatsiya.** Maqolada dasht qabilalarining shimoldan janubga ko'chishidan so'ng bronza davrida eng yaqqol namoyon bo'lgan O'rta Osiyo va Yevrosiyo cho'llari o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish muammolari bo'yicha arxeologik materiallar va adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada ko'chirilgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, bronza davri qabilalarining migratsiya harakati muammolari ochib berilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** Migratsiya, Srubnaya madaniyati, Andronovo madaniyati, ko'chmanchi chorvachilik, kulolchilik, Vodil qabristoni, katakomba.

---

**Djurayev Ikrom Nematovich**  
GulSPI, Associate Professor of the Department  
of Social Sciences and Art History, PhD

### **RESETTLEMENT TO THE FERGANA VALLEY OF THE CENTRAL ASIAN CATTLE BREEDERS**

**Abstract.** This article reflects archaeological materials and literature on the problems of developing cultural and economic ties between the tribes of Central Asia and the steppes of Eurasia, which most clearly occurred in the Bronze Age after the migration of the steppe tribes from north to south. In addition, the article reveals the socio-economic and cultural life of the resettled population, as well as the problems of the migration movement of the Bronze Age tribes.

**Key words:** Migration, Srubna culture, Andronovo culture, nomadic cattle breeding, molded ceramics, graves Vodil, the catacomb.

---

**Джураев Икром Нематович**  
ГулГПИ, Доцент кафедры социальных  
наук и искусствоведения, PhD

### **ПЕРЕСЕЛЕНИЕ В ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ СКОТОВОДЧЕСКИХ ПЛМЁН**

**Аннотация.** В статье рассматриваются археологическими материалами и литературой проблемы освоения культурно-хозяйственные связи между племенами Средней Азии и степей Евразии, наиболее явно происходившие в эпоху бронзы после миграции степных племен севера на юг. Кроме этого в статье раскрывается социально – экономическая и культурная жизнь переселенного населения, а также проблемы миграционного движения племён эпохи бронзы.

**Ключевые слова и фразы:** Миграция, срубной культура, андроновской культура, кочевого скотоводства, лепной керамика, могилник Водил, катакомба.

---

**Kirish.** Mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi davomida Yevrosiyo dasht qabilalari Farg'ona vodiysining janubiy va g'arbiy hududlariga kirib kela boshlaydilar. Bu haqda dastlabki xabarni arxeolog A.N.Bernshtam asarlaridan bilishimiz mumkin. A.N.Bernshtam 1940 yilda Sulaymon tog'idan janubda, O'sh shahri yaqinidan topilgan archasimon naqshli sopol parchalari bilan tanishib, bu sopol parchalarini bronza davrining andronova-Karasuk madaniyatiga tegishli ekanligini ta'kidlaydi va uning yil sanasini mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlari bilan belgilaydi [2;186-b]. N.G. Gorbunova va B.Z. Gamburglar 1950 yillarda Janubiy Farg'onaning adirlik zonalaridan bronza davrining dasht qabilalari madaniyatiga tegishli Vodil va Karamqo'l yodgorliklarini topadilar.

Farg'ona o'lkashunoslik muzeyining arxeologi B.Z. Gamburg 1950 yillarda Farg'ona viloyatining janubiy hamda janubiy-sharqiy qismida arxeologik qidiruv ishlarini olib borib, 1954 yilga kelganda, to'rt yillik arxeologik ish faoliyatining yakuni sifatida arxeologik xaritaga 84 ta yodgorlikni tushiradi [18;46-54-b]. Ular asosan yassi tepaliklardan iborat tosh qo'rg'onlar bo'lib, ular orasida Vodil tumani markaziga yaqin joyda joylashgan katta qabrison alohida e'tiborga loyiq ekanini ta'kidlab, Sankt-Peterburglik arxeolog N.G. Gorbunova bilan hamkorlikda Vodil qabrisonini qazishga kirishadi.


**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Vodil qabrisoni. Qabrisonning mozar usti qurilmalari yassi tosh tepaliklar ko'rinishida bo'lib, ular Olatov tizmalarining shimoliy adirlari bo'ylab yoyilgan edi. Qabrison maydoni janubdan shimolga 2 km, sharqdan g'arbga 2,5 km masofani egallagan. Mana shu maydonda 273 ta yassi tosh qo'rg'onlar hisobga olingan. Qadimgi qabrison Shohimardon soyi bo'ylab joylashgan. Qabrison shimol tomondan Vodil qishlog'iga tutashib ketgan [6;121-128-b. 7;133-135-b].

Bronza davrining Andronova chorvadorlari o'z moddiy madaniyat izlarini O'sh va O'zgan yaqinida ham qoldirib ketganlar. Ular sopol parchalari, shoxdor bilakuzuklar sifatida topilgan [2;186-b]. Aynan shunday bilakuzuk Toshkent viloyatidan ham topilgan [4;85-93-b].

Vodil qabrisonida B.Z. Gamburg va N.G. Gorbunovalar tomonidan 1955 yilda qazishma ishlari davomida 31 ta mozar-qo'rg'onlar ochiladi. Tosh yashiklar usti tosh plitalar bilan yopilganligi aniqlanadi. Vodil qabrisonining tosh yashiklari, ularda yotgan skeletlar holati va oriyentirovkasi hamda ularda topilgan ashyoviy dalillar kompleksi Janubiy Sibir va tog'li Oltoyning bronza davri andronova madaniyati yodgorliklarini eslatadi [12;151-152-b]. Vodil qabrisonidan topilgan sopol idishlar shakli va ularning naqshlariga ko'ra, G'arbiy Qozog'iston [8;93-96-b] va Janubiy Sibir [12;152-b] andronova madaniyati yodgorliklari keramikasining aynan o'zidir.

Vodil qabrisonidan topilgan bronza va pastaviy munchoqlar hamda uchli bronza uzuklar Janubiy Sibir materiallariga juda o'xshab ketadi [12;152-b]. Vodil qabrisonidan topilgan antropologik materiallar V.V. Ginzburg tadqiqotiga ko'ra, dolixokefal yevropoid tipining andronoid variantiga tegishli ekanligi aniqlangan.

Ochilgan 31 ta qabrdan 16 tasida 23 ta sopol idishlar topilgan. Idishlar bir xil shaklda, og'zi keng, tashqariga qayrilgan, qorni bo'rtib chiqqan ko'rinishda. Idishlarning yelka qismi chizma va chekma naqshlar bilan qoplangan. Naqshlar parallel egri chiziqlar va tomchisimon oval chiziqchalardan iborat. Sopol tuvaklar tanasining pastki qismida olov izlari saqlangan. Demak, ularda oziq-ovqat tayyorlangan.



**Rasm. Vodil, Andronova madaniyati keramikasi, taqinchog'i.**

Ba'zi bir ayol skeletining bilak suyaklarida bikonik shakldagi munchoqlardan tizilgan bronza bilakuzuklari, bir uchi ilon boshli, ikkinchi uchi bigiz tig'li bronza uzuklari va silindsimon pasta munchoqlar uchraydi. 6 ta mozordan bronza predmetlari topilgan. Ular bronzadan yasalgan munchoqlar, uzuk va sirg'a hamda ikki parrakli zo'g'otali paykonlardan iborat. Uchta mozordan pastali munchoqlar ham topilgan.

Vodil qabristonidan topilgan sopol idishlar shakli va ularning naqshlariga ko'ra, G'arbiy Qozog'iston [8;93-96-b] va Janubiy Sibir [12;152-b] andronova madaniyati yodgorliklari keramikasiga o'xshasa-da, Vodil sopoli o'zining arxaikaligi va naqshining soddaligi bilan ko'proq Toshkent vohasi bronza davri sopollariga o'xshab ketadi [18;46-54-b].

Karamko'l qabristoni. Ushbu yodgorlik Vodil qabristonidan 40 km.lar chamasi shimoli-sharqda, Isfayram soyidan shimoli-sharqdagi adirlikda joylashgan [7;133-135-b]. Bu joyda 16 ta qo'rg'on ochilgan. Ular xudi Vodil qabristoni qo'rg'onlari kabi mayda tosh va shag'al tuproq aralash aylana shaklidagi yassi tepaliklardan iborat bo'lib, ular ostidagi qabrlarda jasadlar tosh yashiklarga ko'milgan. Tosh yashiklarda skeletlar g'ujanak holatda, chap yoki o'ng yoni bilan, boshi g'arbga qaratilgan holda yotgan. Mozorlarning barchasi o'g'irlangan, ashyoviy dalillar deyarli uchramaydi. Faqat bir mozorda (№ 2) pastadan ishlangan atigi bitta bezak topilgan bo'lib, unga analogiya qadimgi Xorazmning Ko'kcha 3 qabristonida uchraydi [10;68-70-b]. Karamko'l qabristonining ichki va tashqi qurilish tarkibi Vodil qabristonini eslatadi. Uning bu jihatdan Vodil qabristoniga aynan o'xshashligi hamda uning qo'rg'on №2 qabridan topilgan pasta qadama bezagi yodgorlikni andronova madaniyati yodgorliklar turkumiga kiritishga imkon berdi. Ular etnik jihatdan nafaqat O'rta Osiyoning bronza davri dasht qabilalari bilan qon-qarindosh, balki ularning kelib chiqish tarixiy ildizlari mintaqa doirasidan kelib chiqib, shimolning dasht qabilalariga borib taqaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shunday qilib, Janubiy Farg'onadan topilgan bu ikki qabriston bronza davri dasht qabilalarining yodgorliklari bo'lib, ulardan Chek mozorlari har jihatdan Vodil, Karamqo'l va Arsif qabristonlarini eslatadi. Yu.B. Piotrovskiy ularning sanasini mil.avv. X-VIII asrlar bilan belgilaydi. Lekin u Vodil qabristonidan topilgan karnaygul shaklidagi baldoqni hisobga olmaydi. Biroq, bunday sirg'alar andronova madaniyati yodgorliklarida keng tarqalgan. N.A. Avanesova andronova madaniyatining metall predmetlarini kompleks tahlildan o'tkazar ekan, shunday sirg'alarni O'rta Osiyo yodgorliklarida mil.avv. XIII-XII asrlarga tegishli

ekanini isbotlagan [1;17-24-b]. Karnaygul shaklidagi sirg'alar Yapagi (2,5) va Arsif qabristonlarida ham topilgan. 1986 yilda G.P. Ivanov xo'jalik ishlari munosabati bilan buzilgan Qashg'archi qabristonida qazishmalar olib borib, oltin va kumushdan yasalgan shunday sirg'alarni topgan [11;39-b]. Hozirgi kunda Farg'ona viloyati hududlarida 7 ta shunday sirg'alar topilgan, uning tashqarisida esa bitta shunday sirg'a topilgan.

Ma'lumki, Farg'ona vodiysining sharqiy tumanlarida qadimgi dehqon aholisining Chust madaniyati namunalari topilgan. Vodiyning g'arbiy tumanlarida bronza davrining chorvador dasht qabilalari yodgorliklarini topilishi B.A. Litvinskiyga ularni mushtarak joylashgan makonlari nomi bilan "Qayroqqum madaniyati" deb atashga imkon bergan.

Qayroqqum manzilgohlari. Qayroqqum hududlarining katta qismi taqirliklardan iborat. Aynan, mana shu taqirliklar yuzasida sopol parchalari ko'plab uchraydi va ularning ma'lum maydonda qalinlashishi, bronza metallurgiyasining toshqollari, bronza va toshdan yasalgan xo'jalik asbob-uskunalari, tosh yorg'uchoq hamda mehnat va harbiy qurollar yasash qoliplari, olovda kuygan tosh uyumlari, taqir yuzasida o'yilgan o'choq o'rinlari va boshqalar uchraydiki, har bir shunday ashyoviy dalillar qalin sochilib yotgan makonlar bronza va ilk temir davri urug' jamoalarining manzilgohlari bo'lgan. Bo'lajak Qayroqqum suv ombori maydonidan arxeologik izlanishlar davomida Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab (ya'ni Sirdaryo bilan Qoramozor tog' tizmalari oralig'i) cho'zilgan Taqir Yagana maydonidan 60 dan ortiq punktda bronza va ilk temir davri urug' jamoalarining manzillari topildi. Ular joylashish o'rinlariga ko'ra, uch qismga (sharqiy, markaziy va g'arbiy) bo'lib o'rganildi. Topilgan qadimgi manzilgohlarning aksariyat ko'pchiligida madaniy qatlam saqlanmagan, ular tabiat unsurlari ta'sirida yemirilib, nurab, buzilib ketgan.

Izlanishlar davomida hisobga olingan 60 dan ortiq punktning 15 tasi qadimgi qayroqqumliklarning hunarmandchilik faoliyatidan dalolat beruvchi metallurgiya ustaxonalari ekanligi aniqlangan. U joylardan ko'plab toshqollar, metall eritish qo'ralarining izlari, metall eritish qozonlarining parchalari, umuman, metallurgiya hunarmandchiligi bilan bog'liq ashyolar topilgan.

Qayroqqum o'choqlari tosh yoki loydan qurilgan. Tosh o'choqlar taqir ustida, loy o'choqlar chuqurchasi esa taqirga o'yilib, yuqori qismini devori loydan yasalgan. Shuning uchun tosh o'choqlar Qayroqqum makonlarida yaxshi saqlangan. Ularning shakllari doira yoki oval ko'rinishida bo'lgan. Tosh o'choqlar yerto'la ichida, loy o'choqlar esa yerto'la tashqarisida qurilgan. Shu boisdan bo'lsa kerak, loy o'choqlar tosh o'choqlar kabi bir joyda zanjirdek tizilmagan. Ular odatda makonlarda kam uchraydi. O'choqlar maydoni bir xil emas. Loy o'choqlarning o'lchami kichik, tosh o'choqlar maydoni ikki xil, kichiklarining diametri 0,6-1 bo'lsa, kattalariniki 1-2 m.ga teng [14;114-120-b].

**Tahlil va natijalar.** Qayroqqum makonlarida yerto'lalar konstruksiyasi haqida aniq tasavvur hosil qilish qiyin. Birgina makon № 16 da qazishmalar vaqtida somonli loy suvoq parchalari uchragan. Ammo, makon №16 da yoki boshqa Qayroqqum makonlarida taqirga o'yilgan yerto'la yoki yarim yerto'la izlari uchratilmagan.

Ammo, qayroqqumliklar uy-joy qurilishida toshdan, ya'ni slans tosh plitalaridan (bu hududda qatlamli slans toshlar yetarlicha bor edi), xuddi Daxana qabristoni misolidagidek, keng ko'lamda foydalanishlari mumkin edi-ku. Biroq, dasht qabilalariga tanish bo'lgan bu tajriba Qayroqqumda kuzatilmaydi.

Qayroqqum hududida ruda eritish qo'ralari ko'plab topilgan. Deyarli barcha makonlarda ruda toshqollari uchraydi. Ba'zi joylarda toshqollar uyumini uchratish mumkin. Bunday punktlar albatta ruda eritish ustaxonalari bo'lganligidan guvohlik beradi. Punkt №32 da kulrang, pista ko'mirdek maydalangan ko'kimtir yaltiroq zarrachalar uyumi uchraydi. Ular bir kvadrat metrdan to to'qqiz kvadrat metrgacha joyini egallagan. Ular yaltiroq mis zarrachali kukunlar bo'lib, eritishga tayyorlangan mis ma'dani xomashyosi edi. Ular yaqinida 30x40 m. va undan ham ortiq maydonda ma'dan toshqollari to'plangan. Taxminiy hisoblarga ko'ra, bunday joylarda to'plangan toshqollar 1,5-2 tonnagacha boradi.

Qayroqqumda metall eritishdan tashqari, eritilgan metall xomashyosidan turli xil mehnat va harbiy qurollar ishlab chiqarish yaxshi tashkil etilgan. Bu xildagi ishlarning izlari keng ko'lamda №10, 12, 16, 63 punktlarda tashkil etilgan. Punkt №16 da toshdan metall quyish qoliplari topilgan. Ularda jangovor zo'g'otali bronza boltalari quyilgan [14;114-120-b].

Bronza ishlab chiqarishda sopol qozon (tigel) lardan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, punkt №10, 63 kabi makonlarda sopol qozoncha parchalari uchratilgan. Ularning tagida mis eritmasi saqlangan [15;95-99-b]. Qayroqqum metall predmetlarining kimyoviy tahlilida ko'rsatilishicha, mis 83, 62%, qo'rg'oshin 10,23% (xanjar), mis 97, 08%, qo'rg'oshin 0, 24% (pichoq) bo'lgan. Ularda yetishmagan qorishmalarni surma va rux tashkil etgan. Demak, Qayroqqumda metallurgiyaning misga moslashtirilgan markazi rivojlangan.

Dashti Asht qabristoni. Yodgorlik Sirdaryodan shimolda, Qoramozor tog' tizmalarining janubiy tog' oldi dashtida, Asht qishlog'idan janubiy-g'arbda joylashgan. Bu joyda 500 ga yaqin yarim aylana shaklida tosh qo'rg'onlar bo'lib, ularning diametri 4-12 metrgacha boradi, balandligi 0, 4-1,5 m. Bular orasida yassi tosh qo'rg'onlar ham uchraydi.

**Xulosa.** Dashti Asht qabristoni XIX asrning 80-yillarida N.I. Veselovskiy tomonidan ochilgan. 1957 yilda 20 ga yaqin qo'rg'onlar B.A. Litvinskiy rahbarligida o'rganilgan [14;114-120-b 15;95-99-b]. 1967, 1971-1974 yillarda Asht arxeologik otryadi xodimlari tomonidan 200 ta qo'rg'onlar ochildi. Ulardan 48 tasi kenetaf mozorlari bo'lib chiqdi. Ularning deyarli ko'pchiligi o'g'irlangan. Dashti Asht qabrlaridan bronzadan ishlangan bigiz, zirak va tugmachalar, sopol idishlar topilgan. Sopol idishlar bankasimon shaklda, qizg'ish-qora angob bilan pardozlangan. Bir qism sopollar taroqsimon, archasimon chizma, chekma gullar bilan naqshlangan. Sopol idishlar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh sopollari dasht qabilalar madaniyatini eslatsa, ikkinchi guruh sopollar chust madaniyati sopollarini eslatar edi.

Birinchi guruh idishlari so'nggi bronza davri yodgorliklari-Qayroqqum, Vodil, Karamko'l, Dahana sopollariga juda o'xshash. Ba'zi bir bankasimon idishlar esa Tozabog'yob madaniyatiga o'xshab ketadi. Dashti Ashtda ikki madaniyat sopollarini birgalikda uchrashi qadimgi Farg'onada ikki etnik guruhlarini ilk konsolidatsiyasidan guvohlik berar edi [16;69-b].

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Аванесова Н.А. Проблемы истории андроновского культурного единства (по металлическим изделиям). Автореф. канд. Дисс. –Ленинград, 1979. –С. 17, 24.
2. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. –М.-Л., 1952. –С. 186;
3. Воронец М.Э. Браслеты бронзовой эпохи Музея истории АН Уз.ССР. «Тр. Ин-та Истории и археологии АН.Уз.ССР», т. 1 –Ташкент–1948. –С. 65, рис. 1.



4. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Могильник эпохи бронзы в Ферганской долине. КСИА, Вып.63. –Москва.1956. –С. 85–93;
5. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины. // СА, № 3, 1957. –С. 130–133.
6. Грязнов М.П. Погребения эпохи бронзы в Западном Казахстане. Сб. “Кзаки” , Вып. № 11. –Ленинград, 1927. –С. 121–128.
7. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины. // СА № 3, 1957, –С.133–135.
8. Итина М.А. Раскопки могильника Тазабагъябской культуры Кокча 3. “МХЭ”, Вып.5, – Москва, 1961. –С.93–96.
9. Иванов Г.П. Кашкарчинский могильник–новый могильник эпохи поздней бронзы в Фергане. ОНУ. –Ташкент, 1988. № 10. –С. 44–47.
10. Киселев С.В. Древняя история Южной Сибири. –Москва, 1951. –С. 68, 70.
11. Киселов С.В. Материалы и исследования по археологии Сибири. // МИА. 24, 1952. – С. 39, рис.22,29.
12. Литвинский Б.А. и др. Древности Кайракумов. –Душанбе, 1962, –С. 151–152.
13. Литвинский Б.А. Изучение курумов в северо–восточной части Ленинабадской области в 1957 г. В кн. «Археологические работы в Таджикистане». Т.V. –Душанбе, 1959. –С. 109–129;
14. Литвинский Б.А. Курганы и курумы Западной Ферганы. –М., 1972. –С. 114–120;
15. Салтовская Е.Д. О погребениях ранних скотоводов в северо–западной Фергане. // КСИА АН ССР, Вып. 154, –Москва, 1978. –С. 95–99.
16. Тереножкин А.И. Согд и Чач. КСИИМК, XXXIII, 1950. рис. 69, XV, 7;
17. Тереножкин А.И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. Изд. УзФАН, 1940. № 9, –С. 30–31.
18. Djurayev I.N. Markaziy Osiyo dasht qabilalarining tili masalasida fandagi ustuvor konsepsiyalarga doir qadimgi xitoy yozma manbalarining yangicha tahlili. // O'tmishga nazar, № 1, 2022, –В. 46-54.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 4 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).